

# Yashil vodorod sotib olish yuzasidan shartnoma imzolash marosimi bo'lib o'tdi

// 17.05.2023

<https://uzkimiyosanoat.uz/oz/press/news/yashil-vodorod>



"O'zbekimiyosanoat" AJ hamda Saudiya Arabistonining "ACWA Power" kompaniyasi o'rtasida Yashil vodorod (HPA) sotib olish yuzasidan shartnoma imzolash marosimi bo'lib o'tdi.

Samarqand shahri mezbonlik qilayotgan Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki Boshqaruvchilar kengashining 32 yillik yig'ilishi doirasida "O'zbekimiyosanoat" AJ hamda Saudiya Arabistonining "ACWA Power" kompaniyasi o'rtasida, umumiy qiymati 88 mln AQSH dollariga teng bo'lgan yiliga 3 000 tonna yashil vodorodni ishlab chiqarish loyihasi bo'yicha "Yashil vodorod sotib olish (HPA)" yuzasidan shartnoma imzolash marosimi bo'lib o'tdi.

Ta'kidlab o'tish lozim, mazkur loyiha doirasida "ACWA UKS GH2" qo'shma korxonasi ("ACWA Power" – 80% va "O'zbekimiyosanoat" AJ – 20%) tashkil etilgan bo'lib, loyiha doirasida 52 MVt quvvatga ega shamol turbinasini va 20 MVt quvvatga ega elektrolizatorni o'rnatilishi hamda loyiha doirasida ishlab chiqariladigan yashil vodorodni qayta ishlash orqali yuqori qo'shilgan qiymatga ega yashil karbamid ishlab chiqarish rejalashtirilgan.